



*2024- yil yanvar-iyun oylari uchun
dastlabki ma'lumot*

TOSHKENT VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

2024- yil yanvar-iyun oylarida Toshkent viloyatining tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 2685,6 mln. AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 81,0 mln. AQSH dollariga yoki 2,9 %ga kamaydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-iyun 2024 y., mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **2 685,6** -2,9 %

(2023- y.: **2 766,6**)



Saldo

2024- y.: **-942,8** (2023- y.: **-885,4**)




Eksport

2024- y.: **871,4** -7,4 %

(2023- y.: **940,6**)


TSA'dagi ulushi, % da



Import

2024- y.: **1 814,2** -0,6 %

(2023- y.: **1 826,0**)



Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarning tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 871,4 mln. AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 7,4 %ga kamaydi) va import hajmi 1814,2 mln. AQSH dollariga (0,6 %ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida -942,8 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-iyun mln. AQSH dollari)

Rossiya TSA – 761,4 Eksport: 270,8 Import: 490,6  28,3 %	XXR TSA – 696,9 Eksport: 268,0 Import: 428,9  26,0 %	Qozog‘iston TSA – 346,8 Eksport: 57,0 Import: 289,8  12,9 %	Turkiya TSA – 198,6 Eksport: 100,9 Import: 97,7  7,4 %	Belarus TSA – 61,3 Eksport: 8,9 Import: 52,4  2,3 %
Italiya TSA – 56,2 Eksport: 8,2 Import: 48,0  2,1 %	Germaniya TSA – 48,4 Eksport: 3,1 Import: 45,3  1,8 %	Tojikiston TSA – 43,6 Eksport: 25,4 Import: 18,2  1,6 %	O‘r‘iz Respublikasi TSA – 31,4 Eksport: 15,0 Import: 16,4  1,2 %	Afg‘oniston TSA – 26,3 Eksport: 26,0 Import: 0,3  1,0 %




YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-iyun, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2023- y.	2024- y.
Rossiya	572,5	761,4
Eksport	206,3	270,8
Import	366,2	490,6
XXR	640,7	696,9
Eksport	210,5	268,0
Import	430,2	428,9
Qozogʻiston	473,4	346,8
Eksport	52,1	57,0
Import	421,3	289,8
Turkiya	252,0	198,6
Eksport	170,0	100,9
Import	82,0	97,7
Italiya	56,4	56,2
Eksport	12,3	8,2
Import	44,1	48,0
Belorus	49,1	61,3
Eksport	10,9	8,9
Import	38,2	52,4
Germaniya	65,3	48,4
Eksport	4,1	3,1
Import	61,2	45,3
Braziliya	111,6	79,9
Eksport	0,0	0,0
Import	111,6	79,9
Shveysariya	4,2	47,6
Eksport	0,9	1,3
Import	3,3	46,3
Tojikiston	51,0	43,6
Eksport	21,8	25,4
Import	29,2	18,2




**HUDUDLAR KESIMIDA
TASHQI SAVDO AYLANMASI**
(2024- yil yanvar-iyun, mln. AQSH doll.)*





TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 47,5 %ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasi 2023- yilning mos davriga nisbatan 1,0 %ga ko‘paydi.




Toshkent viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2023- yilning mos davriga nisbatan 6,2 %ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi 52,5 %ni tashkil etdi.

Toshkent viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-iyun oylarida 1 275,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 392,0 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 883,3 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-iyun, ulushi, %da)

Rossiya – 28,3		Qozog'iston – 12,9	
Belarus– 2,3		Qirg'iz Respublikasi – 1,2	
<u>Turkmaniston</u> – 0,5		<u>Tojikiston</u> – 1,6	
Ozarbayjon – 0,3		Ukraina – 0,4	
Armaniston – 0,0		Moldova – 0,0	



Toshkent viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (28,3%), Qozog'iston (12,9%) hamda Belarus (2,3%) davlatlari bilan qayd etildi.




Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 809 taga yetdi va ular tomonidan 871,4 mln. AQSH dollari qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 7,4 %ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-iyun ulushi %da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



TOSHKENT VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar-iyun, yillar kesimida)


XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, %da		Umumiy hajmga nisbatan, %da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	940,5	871,3	93,5	92,6	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	104,5	101,2	114,8	96,8	11,1	11,5
Ichimliklar va tamaki	4,2	7,0	2,5 m.	167,9	0,4	0,8
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	25,3	31,0	70,6	122,6	2,7	3,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	3,5	6,3	2,4 m.	180,2	0,4	0,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,4	4,8	30,7	11,6 m.	0,0	0,6
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	36,8	48,5	103,3	132,0	3,9	5,6
Sanoat tovarlari	612,3	524,3	85,9	85,6	65,2	60,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	25,6	30,7	91,2	119,9	2,7	3,5
Turli xil tayyor buyumlar	125,4	115,1	132,4	91,7	13,3	13,2
Xizmatlar	2,5	2,4	80,8	96,9	0,3	0,3

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,7 %ni tashkil etib, ulardan yuqori ulush sanoat tovarlari (60,2%), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (11,5%) va turli xil tayyor buyumlar (13,2%) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-iyun oyida MDH mamlakatlarga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,3 %ga ko'paygan.


MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Turkiya, Qozog'iston, Afg'oniston, Tojikiston va Qirg'iz Respublikasi kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 87,6 %ni tashkil etdi.




TOSHKENT VILOYATI EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-iyun, %da)





TOSHKENT VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024- yil yanvar-iyun, mln.AQSH doll.)*





MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-iyun oyida 86,9 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan.

Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 33,1 mln. AQSh dollariga teng 73,6 ming tonnadan ortiq sabzavot shuningdek, 20,6 mln. AQSh dollari qiymatidagi 13,1 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

2024- yil yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo‘lgan 53,7 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024- yil yanvar-iyun, o‘zgarish sur‘atlari, qiymatga nisbatan)



Meva va
rezavorlar
13,1 ming tonna
20,6 mln.
AQSH dollari

Uzum
1,7 ming tonna
2,2 mln.
AQSH dollari

Yeryon-g‘oqlar
0,4 ming tonna
0,6 mln. AQSH
dollari

Sabzavotlar
73,6 ming tonna
33,1 mln. AQSH
dollari



TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI




2024- yilning yanvar-iyun oylarida import hajmi 1 814,2 mln. AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 99,4 %ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (24,8%), sanoat tovarlari (12,4%) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (9,0%) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-iyun, ulushi, %da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-iyun oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,8 mln. AQSH dollariga kamaydi va 1 814,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 4,9 mln. AQSH dollariga yetdi.



TOSHKENT VILOYATINING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI *(yanvar-iyun, yillar kesimida)*


XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, %da		Umumiy hajmga nisbatan. %da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	1 826,0	1 814,2	116,7	91,8	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	300,6	356,1	93,4	118,5	16,4	19,6
Ichimliklar va tamaki	3,1	2,4	156,9	77,9	0,2	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	295,1	230,1	101,6	78,0	16,2	12,7
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	151,2	264,6	2,9 m.	175,1	8,3	14,6
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	42,9	42,1	138,2	98,0	2,4	2,3
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	175,9	163,9	101,6	93,2	9,6	9,0
Sanoat tovarlari	289,2	224,1	89,7	77,5	15,8	12,4
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	525,0	450,2	169,8	85,8	28,8	24,8
Turli xil tayyor buyumlar	40,0	32,6	70,0	81,5	2,2	1,8
Boshqa tovarlar	0,6	43,2	33,1	67,9 m.	0,0	2,4
Xizmatlar	2,4	4,9	53,5	2,1 m.	0,1	0,3

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.



2024- yil yanvar-iyun natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 48,7 %ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 0,5 %ga ko'paydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-iyun oyida yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Italiya, Belarus va Germaniya) jami importning 80,0 %ni tashkil etdi.



TOSHKENT VILOYATI IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-iyun, %da)





TOSHKENT VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar-iyun, mln. AQSH doll.)

